

SURXONDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni


(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilamonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z ornida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlar qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- aprel holatiga ko'ra)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

6



Aksiyadorlik jamiyati:

Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; - aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni


(yanvar- mart oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar- mart oylarida, birlikda)

7



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi


(2022- yil yanvar- mart oylarida, umumiy sonidagi ulushi, foizda)



2022- yil yanvar- mart oylarida 1 432 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 853 ta, oilaviy korxonalar - 347 ta, xususiy korxonalar - 152 ta, muassasalar - 47 ta va boshqalar – 33 tani tashkil etdi.

Oilaviy korxonalar soni

(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra 6 106 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 592 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 5 521 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 549 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yil yanvar- mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 347 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 138 taga yoki 0,7 martaga kamayganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, 12 065 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 254 taga yoki 21,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 12 065 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 012 taga yoki 20,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2022- yil yanvar- mart oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 853 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 32 taga yoki 0,9 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

9




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, 599 tani tashkil etib, ulardan 580 tasi yoki 96,8 % faoliyat ko'rsatmoqda.

Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 117 taga yoki 25,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yil yanvar- mart oylarida viloyati-mizda 24 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati
cheklangan jamiyatlar soni**
(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni**
(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

| | 2018- yil | 2019- yil | 2020- yil | 2021- yil | 2022- yil |
|---|--------------|--------------|--------------|---------------|---------------|
| Jami | 4 903 | 6 261 | 8 046 | 10 053 | 12 065 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | | | |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 465 | 675 | 929 | 1 431 | 1 810 |
| Sanoat | 746 | 1 041 | 1 276 | 1 536 | 1 837 |
| Qurilish | 817 | 1 074 | 1 395 | 1 616 | 1 914 |
| Savdo | 1 452 | 1 869 | 2 506 | 3 208 | 3 868 |
| Tashish va saqlash | 507 | 522 | 596 | 624 | 648 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 196 | 237 | 319 | 374 | 458 |
| Axborot va aloqa | 76 | 85 | 109 | 117 | 155 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 54 | 73 | 94 | 135 | 172 |
| Boshqa turlar | 590 | 685 | 822 | 1 012 | 1 203 |

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

12



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

| | 2018- yil | 2019- yil | 2020- yil | 2021- yil | 2022- yil |
|--|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|
| Jami | 71 | 229 | 380 | 458 | 580 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | | | |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 14 | 66 | 98 | 110 | 126 |
| Sanoat | 33 | 61 | 99 | 123 | 137 |
| Qurilish | 1 | 10 | 22 | 32 | 38 |
| Savdo | 11 | 55 | 111 | 143 | 214 |
| Tashish va saqlash | 4 | 8 | 7 | 7 | 9 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 1 | 10 | 19 | 18 | 23 |
| Axborot va aloqa | 1 | 1 | 2 | 1 | 2 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 1 | 3 | 4 | 6 | 8 |
| Boshqa turlar | 5 | 15 | 18 | 18 | 23 |

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar soni**
(2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

13



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

14

| | Jami | <i>shundan:</i> | |
|-----------------------------|------------|-----------------|-----------------|
| | | qo'shma korxona | xorijiy korxona |
| Surxondaryo viloyati | 580 | 146 | 434 |
| Termiz sh. | 333 | 37 | 296 |
| tumanlar: | | | |
| Oltinsoy | 7 | 6 | 1 |
| Angor | 20 | 5 | 15 |
| Bandixon | 3 | 1 | 2 |
| Boysun | 8 | 6 | 2 |
| Muzrabot | 16 | 6 | 10 |
| Denov | 20 | 10 | 10 |
| Jarqo'rg'on | 15 | 8 | 7 |
| Qumqo'rg'on | 12 | 6 | 6 |
| Qiziriq | 10 | 1 | 9 |
| Sariosiyo | 20 | 11 | 9 |
| Termiz | 47 | 16 | 31 |
| Uzun | 41 | 19 | 22 |
| Sherobod | 13 | 7 | 6 |
| Sho'rchi | 15 | 7 | 8 |

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)


15



2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz shahri (17,9 %), Denov (11,8 %), Jarqo'rg'on (8,0 %), Sho'rchi (6,9 %), Qumqo'rg'on (6,8 %), Sherobod (6,5 %), Termiz (6,5 %), Sariosiyo (5,3 %), Uzun (5,3 %), Boysun (4,8 %), Qiziriq (4,8 %), Muzrabot (4,7 %), Angor (4,7 %), Oltinsoy (3,9 %) va Bandixon (2,1 %) tumanlarida hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2022- yil yanvar- mart oylarida, birlikda)



2022- yil yanvar- mart oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Termiz sh. (15,4 %), Denov (10,8 %), Boysun (8,4 %), Qumqo'rg'on (7,6 %), Jarqo'rg'on (7,5 %), Sherobod (6,3 %), Sho'rchi (5,6 %), Sariosiyo (5,4 %), Muzrabot (5,4 %), Bandixon (5,0 %), Qiziriq (4,8 %), Angor (4,7 %), Uzun (4,5 %), Oltinsoy (4,5 %) va Termiz (4,1 %) ulushiga ega.


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni

(2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz sh. (26,0 %), Denov (9,6 %), Termiz (8,8 %), Jarqo'rg'on (7,2 %), Sherobod (6,1 %), Qumqo'rg'on (5,6 %), Sho'rchi (5,4 %), Boysun (5,2 %), Qiziriq (4,8 %), Angor (4,5 %), Muzrabot (4,4 %), Sariosyo (4,2 %), Uzun (3,5 %), Oltinsoy (2,4 %) va Bandixon (2,3 %) ulushiga ega.

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning
qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**
(2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)


17



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni


(2022- yil yanvar- mart oylarida, birlikda)



2022- yil yanvar- mart oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Boysun (19,0 %), Denov (10,7 %), Oltinsoy (9,2 %), Qiziriq (7,8 %), Termiz sh. (7,8 %), Sherobod (6,6 %), Angor (5,8 %), Jarqo'rg'on (5,5 %), Bandixon (5,5 %), Sariosiyo (4,3 %), Muzrabot (4,3 %), Termiz (3,7 %), Uzun (3,7 %), Sho'rchi (2,8 %) va Qumqo'rg'on (2,9 %) tumanlari ulushiga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2022- yil yanvar- mart oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga-vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- oktabrdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida” 275- sonli qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

The screenshot shows the homepage of the website [www.stat.uz](http://stat.uz). The header features the national emblem of Uzbekistan and the text "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". Below the header, there are links for "ASOSIY SAHIFA", "QO'MITA HAQIDA", "AXBOROT XIZMATI", "INTERAKTIV XIZMATLAR", "OCHIQ MA'LUMOTLAR", "MUROJAATLAR", and "KONTAKTLAR". The main content area is titled "RASMIY STATISTIKA" and includes a sidebar with links like "Elon qilish taqvimi", "Metamolumotlar", etc. A central panel shows a dropdown menu under "Xizmatlar ro'yxati" with options such as "Eletron hisobot", "KTYaDR ma'lumotlari", "Uslubiy materiallar", "Statistik klassifikatsiyalar", "Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati", and "Korxona pasporti". On the right side, there is a column titled "FOYDALI MA'LUMOTLAR" with links to various reports and documents.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni
yuritish bo'limi
Tel. (76) 225-65-90**